

UDK: 619:616.636.095

## SIRDARYO VILOYATINING AYRIM TUMANLARIDA QO'YLAR OSHQOZON-ICHAK STRANGILYATOZLARINING TARQALISHI

*Uluqov B.K., tayanch doktorant  
Djabborov Sh.A., v.f.d., professor  
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada joriy yilda respublikamizning markaziy hududi hisoblangan – Sirdaryo viloyatining turli tumanlari bo'yicha qo'ylarning gelmintozlar bilan zararlanish darajasi, asosiy gelmintozlarning tarqalish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'ylar, gelmint, gelmintoz, strangilyatoz, marshallagioz, umumiylar, zararlanish, ekstenszararlanish.

**Kirish.** O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyoning o'ziga xos geografik-iqlim xususiyatlari – bahor va kuz oylarining iliq va namgarchilik etarli bo'lishi, qish mavsumining esa o'ta sovuq bo'lmasligi, qish oylarida vaqtqi-vaqt bilan iliq kunlar kuzatilishi ko'pgina gelmintozlarning keng tarqalishiga sharoit yaratadi. Qo'ylar gelmintozlari mamlakatimizda keng tarqalgan bo'lib, qo'ychilik sohasiga sezilarli darajada iqtisodiy zarar keltiradigan turlarini mamlakatimiz iqlim mintaqalari bo'yicha tarqalishini aniqlash ham dolzarb bo'lib, o'z echimini kutayotgan muammolardan biridir.

Birgina gelmintoz kasalliklar chorva hayvonlari mahsuldarligi va mahsulot sifatiga sezilarli darajada salbiy tasir ko'rsatadi. Shu boisdan hududlar miqyosida qo'ylarning asosiy gelmintozlarni tarqalish darajasini aniqlash, o'z vaqtida degelmintizatsiya tadbirlarini amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

**Material va metodlar.** Tadqiqotlar joriy yilda Respublikamizning markaziy geografik iqlim-mintaqasi hududi Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Guliston, Boyovut, Xavos va Sardoba tumanlarida olib borilgan.

Tadqiqotlar davomida olingan namunalar gelmintooskopiyaning Fyulleborn va ketma-ket yuvish usullari, Berman-Orlovning VITIda takomillashtirilgan usulidan foydalanib tekshirildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Sirdaryo viloyatida 153 bosh qo'ylar tekshirilgan bo'lib, ular orasida 35 bosh (22,9 %) qo'ylar marshallagioz, 30 bosh (19,6 %) qo'ylar nematodiroz, 56 bosh qo'y yoki 36,6 % - boshqa oshqozon-ichak strangilyatozlar bilan, 20 bosh qo'y (13,1%) – fassiolyoz bilan zararlanganligi aniqlandi (1-diagramma).


Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanida 27 bosh tekshirilgan qo'ylardan 24 bosh qo'y yoki 88,9 % turli gelmintozlar bilan zararlangan bo'lib, ular orasida 15 bosh (55,6%) qo'ylar marshallagioz bilan, 5 boshi (18,5%) nematodiroz bilan, 16 bosh qo'ylar (59,3%) - boshqa oshqozon-ichak strangilyatozlar bilan, 4 bosh qo'y (14,8%) – fassiolyoz bilan zararlanganligi aniqlandi.

Guliston tumanida 6 boshi (24%) boshqa oshqozon-ichak strangilyatozlar bilan, 3 boshi (12%) fassiolyoz bilan, tumanda tekshirilgan jami 25 bosh qo'ylarning 9 boshi gelmintozlar bilan zararlangan bo'lib, umumiylar zararlanganlik 36 % ni tashkil etdi.

Boyovut tumanida jami 28 bosh qo'ylar gelmintologik tekshirilgan bo'lib, shundan 1 bosh (3,6%) qo'ylar marshallagioz bilan, 3 bosh (10,7%) nematodiroz bilan, 13 boshi (46,4%) boshqa oshqozon-ichak strangilyatozlar bilan, 5 boshi (17,8%) fassiolyoz bilan zararlangan. Umumiylar zararlanganlik 67,8 % ni tashkil etdi.

Xavos tumanida jami 55 bosh qo'ylar gelmintologik tekshirilgan bo'lib, shundan 14 bosh (25,5%) qo'ylar marshallagioz bilan, 14 bosh (25,5%) nematodiroz bilan, 19 boshi (34,5%) boshqa oshqozon-ichak strangilyatozlar bilan, 8 boshi (14,5%) fassiolyoz bilan zararlangan. Umumiylar zararlanganlik 69,1 % ni tashkil etdi.

## Diagramma



Sardoba tumanida 5 bosh (27,7%) qo'ylar marshallagioz bilan, 8 bosh (44,4%) nematodiroz bilan, 2 boshi (11,1%) boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlar bilan zararlangan. Tumanda tekshirilgan jami 18 bosh qo'yularning 11 boshi gelmintozlar bilan zararlangan bo'lib, umumiy zararlanganlik 61,1 % ni tashkil etdi.

**Xulosalar.**

- Respublikaning markaziy viloyati Sirdaryo viloyatida qo'yular turli xil gelmintozlar bilan zararlangan bo'lib, bu ko'satgich 66,01 % ni tashkil qiladi.
- Viloyatning Mirzaobod tumanida tekshirilgan qo'yularning gelmintozlar bilan zararlanishi eng yuqori foizda (88,9) ekanligi kuzatildi.
- Tekshirilgan tumanlar orasida qo'yularning gelmintozlar bilan zararlanishi eng past ko'rsatkich Guliston tumanida qayd etildi ya'ni tumanda zararlanish 36 % ekanligi kuzatildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- Азимов Д.А. Гельминты и гельминтозы овец юга Узбекистана. Автореф. канд. дисс., М., 1963.
- Азимов Ш.А. Фасциолёзы и аноплоцефиллязы овец и крупного рогатого скота в Узбекистане. Изд-во ФАН, 1974.
- Джаббаров Ш.А. Гельминтозларга қарши кураш чора-тадбирларининг самараадорлиги ва уни ошириш йўллари. Докт. дисс. автореферати. Самарқанд, 2017. 52 б.
- Иргашев И.Х. Гельминтозы меккого рогатого скота в условиях Узбекистана (опыт эпизоотологической характеристики с последующей разработкой мер борьбы в зональном разрезе). Автореф. докт. дисс., М., ВИГИС, 1963.
- Орипов А.О. Трихостронгилидоза овец в Узбекистане и меры борьбы с ними. Автореф. докт. дисс., М., 1983.